## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024- yil 1- sentabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 26 587 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 22 150 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 96,9 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 96,3 foiz) tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2024- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 267 | 15,1 % |
| Sanoat | 586 | 12,8 % |
| Qurilish | 115 | 7,9 % |
| Savdo | 1 177 | 13,4 % |
| Tashish va saqlash | 101 | 10,7 % |
| Yashash va ovqatlanish | 188 | 14,4 % |
| Axborot va aloqa | 79 | 20,1 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 78 | 10,7 % |
| Boshqa turlar | 414 | 6,3 % |

2024- yil yanvar-avgust oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda yashash va ovqatlanishda (19 taga), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda (9 taga) oshganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soning tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, oilaviy korxonalar 58 taga ko‘paygan.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 912 | 11,1 % | Mingbuloq tumani | 211 | 15,9 % |
| *shundan Davlatobod t.* | *243* | *11,9 %* | Kosonsoy tumani | 210 | 13,2 % |
| *Yangi Namangan t.* | *242* | *12,5 %* | Chortoq tumani | 193 | 11,4 % |
| Pop tumani | 239 | 12,0 % | Norin tumani | 173 | 12,2 % |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 238 | 13,2 % | Uychi tumani | 140 | 9,2 % |
| Yangiqo‘rg ‘on tumani | 229 | 15,8 % | To‘raqo‘rg‘on tumani | 137 | 8,1 % |
| Chust tumani | 216 | 9,5 % | Namangan tumani | 107 | 6,5 % |

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish




Axborot va aloqa




Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish




Boshqa turlar

2024- yil 1- sentabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 26 587 tani tashkil etib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda jami 2 661 taga kamaygan bo‘lsada, quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o‘sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 8 404 tadan 8 816 taga (o‘sish 412 ta), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda – 594 tadan 728 taga (o‘sish 134 ta), yashash va ovqatlanish – 1 285 tadan 1 305 taga (o‘sish 20 ta).

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 8 181 | To‘raqo‘rg‘on tumani | 1 681 |
| *shundan Davlatobod t.* | *2 039* | Namangan tumani | 1 648 |
| *Yangi Namangan t.* | *1 939* | Kosonsoy tumani | 1 596 |
| Chust tumani | 2 270 | Uychi tumani | 1 519 |
| Pop tumani | 1 998 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 1 449 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 1 804 | Norin tumani | 1 415 |
| Chortoq tumani | 1 699 | Mingbuloq tumani | 1 327 |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 943 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 926 ta;
- yirik korxonalar 17 tani tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 882 | 12,7 % | Mingbuloq tumani | 208 | 19,1 % |
| *shundan Davlatobod t.* | *236* | *14,0 %* | Kosonsoy tumani | 207 | 15,7 % |
| *Yangi Namangan t.* | *236* | *13,6 %* | Chortoq tumani | 190 | 13,2 % |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 237 | 15,4 % | Norin tumani | 168 | 14,4 % |
| Pop tumani | 236 | 14,3 % | Uychi tumani | 137 | 10,9 % |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 224 | 19,4 % | To‘raqo‘rg‘on tumani | 135 | 9,5 % |
| Chust tumani | 215 | 11,0 % | Namangan tumani | 104 | 7,4 % |

# Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- sentabr holatiga 22 314 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 89,1 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish – 29,0 foiz, savdo – 4,9 foiz, yashash va ovqatlanish – 1,6 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Chortoq 11,9 foiz, Uchqo'rg'on 11,7 foiz, Pop 9,2 foiz, Norin 4,3 foiz va Mingbuloq 0,3 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | **6 937** | To'raqo'rg'on tumani | **1 417** |
| *shundan Davlatobod t.* | ***1 689*** | Namangan tumani | **1 410** |
| *Yangi Namangan t.* | ***1 734*** | Kosonsoy tumani | **1 321** |
| Chust tumani | **1 947** | Uychi tumani | **1 258** |
| Pop tumani | **1 650** | Norin tumani | **1 165** |
| Uchqo'rg'on tumani | **1 534** | Yangiqo'rg'on tumani | **1 152** |
| Chortoq tumani | **1 435** | Mingbuloq tumani | **1 088** |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

266
15,4 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

584
13,0 %

Sanoat

115
8,0 %

Qurilish

1 175
13,4 %

Savdo

101
10,7 %

Tashish va saqlash

188
14,5 %

Yashash va ovqatlanish

79
21,8 %


Axborot va aloqa

77
12,0 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

341
13,9 %

Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 169 tadan 188 taga (o‘sish 19 taga), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish 69 tadan 77 taga (o‘sish 8 taga) ko‘paydi.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 875 | 12,8 % | Mingbuloq tumani | 208 | 19,2 % |
| *shundan Davlatobod t.* | *235* | *14,1 %* | Kosonsoy tumani | 206 | 15,6 % |
| *Yangi Namangan t.* | *234* | *13,6 %* | Chortoq tumani | 189 | 13,2 % |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 236 | 15,5 % | Norin tumani | 167 | 14,4 % |
| Pop tumani | 235 | 14,3 % | To‘raqo‘rg‘on tumani | 134 | 9,6 % |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 224 | 19,5 % | Uychi tumani | 134 | 10,7 % |
| Chust tumani | 214 | 11,1 % | Namangan tumani | 104 | 7,4 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*







## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1 728 |
| Sanoat | 4 508 |
| Qurilish | 1 431 |
| Savdo | 8 783 |
| Tashish va saqlash | 941 |
| Yashash va ovqatlanish | 1 298 |
| Axborot va aloqa | 362 |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 641 |
| Boshqa turlar | 2 458 |

Hududlar kesimida eng ko‘p kichik biznes subyektlari Namangan shahrida (31,0 foiz), Chust (8,7 foiz), Pop (7,4 foiz), Uchqo‘rg‘on (6,9 foiz), Chortoq (6,4 foiz), To‘raqo‘rg‘on (6,3 foiz) va Namangan (6,3 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50,0 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 6 858 | To‘raqo‘rg‘on tumani | 1 403 |
| *shundan Davlatobod t.* | *1 662* | Namangan tumani | 1 402 |
| *Yangi Namangan t.* | *1 715* | Kosonsoy tumani | 1 317 |
| Chust tumani | 1 932 | Uychi tumani | 1 248 |
| Pop tumani | 1 643 | Norin tumani | 1 161 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 1 527 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 1 148 |
| Chortoq tumani | 1 428 | Mingbuloq tumani | 1 083 |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Pop tumani | 311 |
| Chust tumani | 221 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 213 |
| Mingbuloq tumani | 177 |
| Namangan tumani | 167 |
| Namangan shahar | 129 |
| *shundan Davlatobod t.* | *53* |
| *Yangi Namangan t.* | *24* |
| Kosonsoy tumani | 112 |
| Uychi tumani | 103 |
| To ‘raqo‘rg‘on tumani | 95 |
| Chortoq tumani | 83 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 79 |
| Norin tumani | 75 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | **1 630** |
| *shundan Davlatobod t.* | ***437*** |
| *Yangi Namangan t.* | ***519*** |
| Kosonsoy tumani | **368** |
| Namangan tumani | **347** |
| Chust tumani | **332** |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | **303** |
| Uychi tumani | **295** |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | **260** |
| Uchqo‘rg‘on tumani | **254** |
| Norin tumani | **236** |
| Pop tumani | **221** |
| Chortoq tumani | **191** |
| Mingbuloq tumani | **129** |




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi besh yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat sohasining elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari sonining o‘sish sur’ati 100,0 foizni tashkil qildi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 17,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yil ning mos davriga nisbatan 91,0 foizni), 1,9 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (95,6 foizni), 1,5 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (97,3 foizni) va 0,7 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 86,1 foiz) ni tashkil etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 443 |
| *shundan Davlatobod t.* | *131* |
| *Yangi Namangan t.* | *125* |
| Kosonsoy tumani | 143 |
| Uychi tumani | 138 |
| Chust t tumani | 128 |
| Chortoq  tumani | 100 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 93 |
| Pop tumani | 86 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 79 |
| Norin tumani | 74 |
| To‘raqo‘rg‘o tumani | 60 |
| Namangan tumani | 56 |
| Mingbuloq tumani | 53 |




Namanganda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 53,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 93,1 foizni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 15,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 92,7 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 30,7 foiz ulushni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 80,4 foizni tashkil etdi.

**230** Fuqarolik obyektlarini qurish

**446** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**777** Bino va inshootlar qurish

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 2 519 |
| *shundan Davlatobod t.* | *511* |
| *Yangi Namangan t.* | *641* |
| Chortoq tumani | 825 |
| Chust tumani | 691 |
| Pop tumani | 651 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 645 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 556 |
| Namangan tumani | 534 |
| Mingbuloq tumani | 532 |
| Norin tumani | 528 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 483 |
| Uychi tumani | 442 |
| Kosonsoy tumani | 410 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Namanganda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 8 783 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 58,6 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 95,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 31,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 104,8 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 10,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 100,2 foizni tashkil etdi.

**902**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**2 750**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**5 164**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 456 |
| *shundan Davlatobod t.* | *104* |
| *Yangi Namangan t.* | *91* |
| Chust tumani | 140 |
| Pop tumani | 123 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 82 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 78 |
| Kosonsoy tumani | 75 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 71 |
| Norin tumani | 69 |
| Namangan tumani | 63 |
| Chortoq tumani | 52 |
| Uychi tumani | 49 |
| Mingbuloq tumani | 47 |




2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,4 foizga oshgan. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 5,5 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 94,5 foiz ulushini tashkil etdi.

**72** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 233** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 178 |
| *shundan Davlatobod t.* | *28* |
| *Yangi Namangan t.* | *26* |
| Chust tumani | 33 |
| Namangan tumani | 27 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 24 |
| Pop tumani | 21 |
| Uychi tumani | 20 |
| Norin tumani | 19 |
| Chortoq tumani | 18 |
| Kosonsoy tumani | 17 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 14 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 12 |
| Mingbuloq tumani | 11 |




2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 17,8 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,9 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 39,6 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,7 foizni tashkil etdi. Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 42,6 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 99,4 foizni tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 297 |
| *shundan Davlatobod t.* | *75* |
| *Yangi Namangan t.* | *52* |
| Chust tumani | 60 |
| Pop tumani | 48 |
| Namangan tumani | 46 |
| To ‘raqo‘rg‘on tumani | 42 |
| Uychi tumani | 41 |
| Kosonsoy tumani | 38 |
| Chortoq tumani | 38 |
| Norin tumani | 35 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 32 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 27 |
| Mingbuloq tumani | 24 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 641 ta yoki 88,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki: 96,4 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,8 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 68,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 81,3 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

13

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash

13

Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat

702

# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 333 |
| *shundan Davlatobod t.* | *113* |
| *Yangi Namangan t.* | *94* |
| Chust tumani | 170 |
| Namangan tumani | 75 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 56 |
| Uychi tumani | 54 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 47 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 47 |
| Pop tumani | 43 |
| Chortoq tumani | 41 |
| Norin tumani | 31 |
| Mingbuloq tumani | 25 |
| Kosonsoy tumani | 25 |




2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,6 foiz ulushini tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 95,9 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 99,5 foizni;

pochta va kuryerlik yo‘nalishi o‘sish sur’ati 64,3 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar o‘sish sur’ati 100,0 foizni tashkil etdi;



## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| | Tadbirkorlik subyektlari soni | Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi |
|---|---|---|
| mas’uliyati cheklangan jamiyat | 17 647 | 79,1 % |
| Xususiy korxona | 3 426 | 15,3 % |
| Oilaviy korxona | 1 011 | 4,5 % |
| Ishlab chiqarish kooperativi | 105 | 0,5 % |
| Aksiyadorlik jamiyat | 17 | 0,1 % |
| Boshqalar | 108 | 0,5 % |

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Soni | Foiz | Faoliyat turi |
|---|---|---|
| 191 | 16,8 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 511 | 14,3 % | Sanoat |
| 102 | 9,0 % | Qurilish |
| 1 097 | 15,3 % | Savdo |
| 93 | 10,9 % | Tashish va saqlash |
| 147 | 17,0 % | Yashash va ovqatlanish |
| 78 | 24,8 % | Axborot va aloqa |
| 68 | 14,7 % | Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish |
| 338 | 16,6 % | Boshqa turlar |











**Mas’uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 805 | Chortoq tumani | 183 |
| *shundan Davlatobod t.* | *218* | Pop tumani | 177 |
| *Yangi Namangan t.* | *219* | Mingbuloq tumani | 168 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 230 | Norin tumani | 163 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 202 | Uychi tumani | 129 |
| Kosonsoy tumani | 193 | To‘raqo‘rg‘on tumani | 116 |
| Chust tumani | 185 | Namangan tumani | 84 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Amalda 22 314 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 2024- yil 1- sentabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 17 647 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo`yicha korxonalar orasida birinchi o‘rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo‘yidagicha bo‘ldi: savdo – 40,6 foiz, sanoat – 20,3 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 6,4 foiz, qurilish – 7,0 foiz.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 5 845 | Kosonsoy tumani | 1 107 |
| *shundan Davlatobod t.* | *1 473* | Uychi tumani | 1 046 |
| *Yangi Namangan t.* | *1 485* | Namangan tumani | 1 039 |
| Pop tumani | 1 319 | Norin tumani | 983 |
| Chortoq tumani | 1 288 | Yangiqo‘rg‘on tumani | 956 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 1 193 | To‘raqo‘rg‘on tumani | 949 |
| Chust tumani | 1 159 | Mingbuloq tumani | 763 |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

43

9,5 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

19

3,3 %



Sanoat

3

1,7 %



Qurilish

41

3,2 %



Savdo

5

6,3 %



Tashish va saqlash

8

3,0 %



Yashash va ovqatlanish

5

2,9 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

12

3,3 %



Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2024- yil yanvar-avgust oyida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2023- yilning mos davriga 7 taga ko‘paygan.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 37 |
| *shundan Davlatobod t.* | *10* |
| *Yangi Namangan t.* | *9* |
| Pop tumani | 29 |
| Mingbuloq tumani | 27 |
| Chust tumani | 18 |
| Kosonsoy tumani | 10 |
| To‘rago‘rg‘on tumani | 5 |
| Uychi tumani | 4 |
| Namangan tumani | 3 |
| Chortoq tumani | 2 |
| Uch‘go‘rg‘on tumani | 1 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

2024-yil 1- sentabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni o‘zaro taqqoslanganda, ikkinchi o‘rinni xususiy korxonalar egallagan bo‘lib. Xususiy korxonalar sonining eng ko‘pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Namangan shahar 780 ta, Chust 697 ta va To‘raqo‘rg‘on 269 ta tumanlarida tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 293 ta, sanoat – 579 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 453 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 263 ta va qurilish sohasida – 181 ta.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | **780** | Pop tumani | **255** |
| *shundan Davlatobod t.* | ***161*** | Namangan tumani | **236** |
| *Yangi Namangan t.* | ***179*** | Uychi tumani | **173** |
| Chust tumani | **697** | Kosonsoy tumani | **166** |
| Mingbuloq tumani | **275** | Norin tumani | **139** |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | **269** | Chortoq tumani | **86** |
| Uchqo‘rg‘on tumani | **268** | Yangiqo‘rg‘on tumani | **82** |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbatan (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

30

40,0 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

53

16,1 %



Sanoat

39

11,5 %



Savdo

3

27,3 %



Tashish va saqlash

4

33,3 %



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

33

19,1 %



Yashash va ovqatlanish

1

14,3 %




Axborot va aloqa

5

8,9 %



Boshqa turlar

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 39 | Mingbuloq tumani | 12 |
| *shundan Davlatobod t.* | *8* | Chust tumani | 12 |
| *Yangi Namangan t.* | *8* | Uchqo‘rg‘on tumani | 6 |
| Pop tumani | 30 | Norin tumani | 5 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 22 | Kosonsoy tumani | 4 |
| Namangan tumani | 17 | Uychi tumani | 4 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 14 | Chortoq tumani | 3 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra 2020- yilning mos davriga nisbatan 180 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 165 tadan 338 taga (o‘sish 173 taga), yashash va ovqatlanish – 124 tadan 173 taga (o‘sish 49 taga), qurilishda – 4 tadan 10 taga (o‘sish 6 taga) soningning sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Namangan shahar | 252 | Chust tumani | 62 |
| *shundan Davlatobod t.* | *46* | Pop tumani | 62 |
| *Yangi Namangan t.* | *66* | Chortoq tumani | 50 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 176 | Kosonsoy tumani | 39 |
| Namangan tumani | 121 | Mingbuloq tumani | 36 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 98 | Uychi tumani | 27 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 63 | Norin tumani | 25 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni | Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 16 |
| Sanoat | 94 |
| Qurilish | 12 |
| Savdo | 58 |
| Tashish va saqlash | 6 |
| Yashash va ovqatlanish | 6 |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 7 |
| Axborot va aloqa | 8 |
| Boshqa turlar | 20 |

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 90,4 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o‘rinni 56 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Namangan iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Xitoy Xalq Respublikasi (ulushi 22,9 foiz), Turkiya (ulushi 15,4 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,6 foiz) va Qozog‘iston (ulushi 5,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Namangan shahar | 103 |
| *shundan Davlatobod t.* | *30* |
| *Yangi Namangan t.* | *25* |
| Chust tumani | 22 |
| Pop tumani | 20 |
| Kosonsoy tumani | 16 |
| Uychi tumani | 14 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 11 |
| Yangiqo‘rg‘on tumani | 11 |
| Namangan tumani | 9 |
| Chortoq tumani | 6 |
| Norin tumani | 6 |
| Uchqo‘rg‘on tumani | 5 |
| Mingbuloq tumani | 4 |

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| Davlatlar nomi | soni |
|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 56 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 52 |
| Turkiya Respublikasi | 35 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 15 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 12 |
| Tojikiston Respublikasi | 10 |
| Germaniya Federativ Respublikasi | 7 |
| Qirg‘iziston Respublikasi | 5 |
| Hindiston Respublikasi | 3 |
| Afg‘oniston | 1 |
| Boshqa davlatlar | 31 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 113 tasi qo‘shma korxonalar, 114 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo'shma korxonalar |
|---|---|---|
| 61 | Namangan shahar | 42 |
| *19* | *shundan Davlatobod t.* | *12* |
| *17* | *Yangi Namangan t.* | *8* |
| 12 | Chust tumani | 10 |
| 8 | Kosonsoy tumani | 8 |
| 7 | Yangiqo'rg'on tumani | 4 |
| 7 | To'raqo'rg'on tumani | 4 |
| 6 | Pop tumani | 14 |
| 4 | Uchqo'rg'on tumani | 1 |
| 2 | Norin tumani | 4 |
| 2 | Uychi tumani | 12 |
| 2 | Namangan tumani | 7 |
| 2 | Mingbuloq tumani | 2 |
| 1 | Chortoq tumani | 5 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| | xorijiy korxonalar | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 8 | 8 |
| Sanoat | 42 | 52 |
| Qurilish | 7 | 5 |
| Savdo | 30 | 28 |
| Tashish va saqlash | 3 | 3 |
| Yashash va ovqatlanish | 3 | 3 |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 4 | 4 |
| Axborot va aloqa | 4 | 3 |
| Boshqa turlar | 13 | 7 |

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes hamda sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- yanvardagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.


Namangan viloyati statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo‘limi

Tel.: 69 227-84-96